


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 2 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 2 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 2

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 2



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-2>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. **Djumanova Dilbar Raximovna, Bakiyeva Gulandom Xisomovna, Yuvasheva Shoiraxamamadovna**
MAQOLLARNING GENDERLIK: RUS VA INGLIZ TILLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR SEMANTIKASI.....6
2. **Xajiyeva Difuza Adambayevna**
HAMID OLIMJON SHE'RIYATIDA TABIAT TASVIRI: BAHOR, TOG' VA TUN POETIK SEMANTIKASI.....12
3. **Эргашева Дилфуза Камиловна**
ЦЕННОСТНЫЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ РУССКОЙ ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ.....17
4. **Grigoryeva Mariya Vitalyevna**
RUS VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA XRONOTOP (FAZOVIY KONFIGURATSIYA) NING BADIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....21

TARIX

1. **Abdullayeva Laylo**
O'RTA SINFNING SHAKLLANISHI VA UNING TARIXIY-NAZARIY ASOSLARI.....25
2. **SHeripov Umarbek Atajanovich**
MARKAZIY OSIYODA SUV XAVFSIZLIGI MUAMMOSI VA SIBIR DARYOLARINI BURISH LOYIHASI: TARIXIY TAJRIBA VA ZAMONAVIY GEOSIYOSIY TAHLIL.....30
3. **Kamolova Habiba Muhammadiyevna**
AMIR TEMUR VA SHAHRISABZ: TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY TARAQQIYOT....34
4. **Allaberganov Ollabergan Arslanbekovich**
1945–1956-YILLARDA XORAZM VILOYATIDA PENSIYA TA'MINOTI (YUTUQ, KAMCHILIK VA TAFOVUTLAR).....38
5. **Matyakubova Shaxodat Xamidjanovna**
V–XI ASRLARDA JANUBIY OROLBO'YI HUDUDIDA AHOLI TURAR-JOYLARINING MADANIY-XO'JALIK RIVOJI VA IQTISODIY-ETNOMADANIY MUNOSABATLAR (XORAZM ARXEOLGIK TADQIQOTLARI ASOSIDA).....43
6. **Jumaniyazova Intizor To'likinova**
MAMLAKATIMIZDA DINIY TA'LIM VA UNING HUQUQIY ASOSLARI.....48
7. **Alimova G'unchaxon Baxodirovna**
ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI.....52
8. **Г.А. Дадамирзаева**
УЗБЕКИСТОНДА ХУНАРМАНДЧИЛИК КООПЕРАЦИЯСИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҚУРИЛИШ ЖАРАЁНИНИНГ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ.....56
9. **Mamasaidov Lutfillo Payzullo o'g'li**
TA'LIM TIZIMIGA KOMMUNISTIK G'OYALAR TATBIQI VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI.....63
10. **Matkarimova Intizor Atabayevna**
AHOLINI RO'YXATGA OLIHNING JAHON TAJRIBASI.....69

FALSAFA

1. **Nurmatov Jaxangir Yeshbayevich, Turobov Bekpulat Nusratullayevich**
E.E.BERTELS ASARLARIDA NAVOIY MA'NAVIIY MEROSI TAHLILI.....76
2. **Bozorov Mustafu Jabborovich**
MIGRATSIYA JARAYONINING GENEZISI: IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL.....82

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat
Universiteti Tarix kafedrası o'qituvchisi
Alimova G'unchaxon Baxodirovna.
e-mail: alimovag'uncha@gmail.com

ARAB MUHAMMADXON VA UNING AVLODLARI DAVRIDA XIVA XONLIGINING MUSTAHKAMLANISHI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19007650>

Rezyume.

Ushbu maqolada 1602 yilda Xiva xonligi taxtiga Arab Muhammadxon xonlik taxtiga ko'tarilganligi, Arab Muhammadxon hukmronligining dastlabki yillarida toju-taxt uchun kurash davom qilgani, Shayboniylar sulolasi davrida Xiva xonligidagi ijtimoiy- siyosiy jarayonlar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xiva, Urganch, Arab Muhammadxon, Abulg'oz, Xorazm

STRENGTHENING OF THE KHIVA KHANATE DURING THE REIGN OF ARAB MUHAMMAD KHAN AND HIS DESCENDANTS

Resume.

This article discusses the ascension of Arab Muhammad Khan to the throne of the Khiva Khanate in 1602, the struggle for the crown in the early ears of Arab Muhammad Khan's reign, and the socio-political processes in the Khiva Khanate during the Shaybani dynasty.

Keywords: Khiva, Urgench, Arab Muhammad Khan, Abulgozi, Khorezm

УКРЕПЛЕНИЕ ХИВСКОГО ХАНСТВА ВО ВРЕМЯ ПРАВЛЕНИЯ АРАБСКОГО МУХАММЕДА ХАНА И ЕГО ПОТОМКОВ

Резюме.

В данной статье рассматривается восшествие араба Мухаммеда Хана на престол Хивского ханства в 1602 году, борьба за корону в первые годы правления араба Мухаммеда Хана и социально-политические процессы в Хивском ханстве во время династии Шайбани.

Ключевые слова: Хива, Ургенч, араб Мухаммад Хан, Абулгози, Хорезм

Kirish. Xorazm tarixnavislik maktabining asoschisi haqli ravishda Abulg'oz Bahodirxon hisoblanadi. Uning "Shajarayi turk" va "Shajarayi tarokima" asarlari Xiva xonligining XVI-XVII asrlar tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Uning asarlaridagi ma'lumotlar xonlikning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va etnik jarayonlari masalalariga tegishlidir.

Xiva xonligi taxtiga 1602 yilda Arab Muhammadxon ko'tarildi. Shu yili saratonda Urganchga 1000 ga yaqin O'rol kazaklari hujum qildilar[1]. Shaharda oddiy xalqdan boshqa odam yo'q edi.

Yov mingdan ortiq odamlarni o'ldirdi, yana shuncha qiz–juvonlarni olib ketishga hozirlandi. Ammo ular yurtiga qaytib ketishga ulgurmadilar.

Urganch fojeasi haqida xabarni olgan Arab Muhammadxon lashkarlari bilan 7 kun deganda etib keldi. Xon qo'shinlari dushmani ta'qib etib, To'q qal'asi atroflariga quvib chiqardi. Bosqinchilar bu erda yog'ochdan istehkom qurib, baliq ovlab tirikchilik qilib turdilar. Ularni qamal qilgan Arab Muhammadxon 15 kun deganda tor–mor keltirdi[2]. Urganch va Mizdahqon oralig'idagi unumdor erlarni ko'rgan xon, qozongan zafari sharafiga yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida To'q qal'asi yaqinida katta kanal qazdirdi.

Abulg'ozining yozishicha, 1603 yilda shimoliy Xorazmga qolmiqlar bostirib keldi. Ular Xojako'li va Shayx Jalil tog'ining orasidan o'tib, to To'q qal'asigacha daryoning ikki tarafida o'tirgan elni bosdi. Dushmanga qarshi harakat qilgan Arab Muhammadxon Aburichi degan joygacha qolmiqlarni quvib borib, asir va mollarni olib qaytdi[3]. Yana 10–12 yildan keyin qolmiqlar Xorazmga ikkinchi marta bostirib keldilar. Qolmiqlar ketidan yuborilgan askarlar bosqinchilarga eta olmasdan orqaga quruq qaytdilar.

Arab Muhammadxon hukmronligining dastlabki yillarida toju–taxt uchun kurash davom etdi. Nayman urug'i vakillari xon o'rniga Xisrav sulton ismli Elbarsxon avlodiga mansub amaldorni qo'yishni rejalashtirdilar. Movarounnahrda Xivaga keltirilgan Xisrav sultonni taxtga ko'tarish haqidagi maslahatda qatnashgan ikki kishi sheriklarini sotib qo'ydi. Natijada Arab Muhammadxon Xisrav sultonni tutib olib, o'ldirishga hukm qildi. Bu ishni Xisrav sultonning inisi Bobo mirzo amalga oshirdi.

Xonlikning shimoliy va sharqiy hududlari havfsizligini ta'minlash ham Abulg'ozining e'tiborida turardi. 1655 yilda qolmiqlarning turg'avut urug'idan Mergan To'yshi va O'qchurtaba Tag'ul ismli yetakchilari Hazorasning bir qancha qishloqlarini talagandan keyin, Sadvar va Darg'ano qishloqlari aholisining mol–mulkini talon–taroj etdi. Bu haqdagi xabarni eshitgan Abulg'oz qolmiqlarning 10 kun oldin yurtiga qaytib ketganligi haqidagi axborotga qaramasdan ularni ta'qib qilishga qaror qildi. Katta talofat berib, qochishni davom ettirayotgan qolmiqlarning asosiy kuchlari Sangin rabot degan joyga yashirindilar. Urushga yuragi betlamagan qolmiqlar xonga odam yuborib, “Buxoroga boramiz deb, adashib sizning yurtingizga borib qolibmiz, bizni kechiring” deya yalindilar. Shundan so'ng talagan mol–hollarini oldiga solib, qilichlarini bo'yniga osib, xon oldiga kelgan qolmiqlarni kechirganlar.

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Akademik B.Ahmedov yozgandi: “Abulg'oz hammasi bo'lib yigirma yil atrofida xonlik masnadida o'tirdi. Lekin boshqa hukmdorlarga o'xshab huzur–halovat ko'rmadi. Umri ko'proq urush–talashlarda o'tdi”[4]. Darhaqiqat, Abulg'oz butun umrini taxt uchun kurash va jangu–jadallarga bag'ishlagan fotih desa, mubolag'a bo'lmas. Ammo u davlat arbobi sifatida ham juda katta qobiliyatli inson edi. Dastavval u xonlikda boshqaruv tizimini mustahkamlashga e'tiborni qaratadi. Tez orada turkmanlarning nufuzli amaldorlarini boshqaruv ishlaridan chetlashtirdi, ularning mol–mulki, yer–suvi tortib olindi. Ayrim bo'ysunmagan turkmanlar Axal–Taka va Mang'ishloq hududlariga qochishga majbur bo'ldilar. Xonlikni boshqarishda o'zbeklarning mavqeyi ortib bordi[5] va ularning 360 vakili xon saroyida turli lavozimlarga ko'tarilganini Munis “Firdavs ul–iqbol” asarida keltiradi (28^a). Xon yangi amaldorlardan 32 nafarini mahram qilib, o'z yoniga oldi.

1657 yilda Abulg'oz tabobatga oid “Manafi' ul–inson” (“Insonga foydali narsalar”) nomli asar yozdi. Kitob 4 qism va 21 bobdan iborat bo'lib, uning muallifi “Illatga iloj qilmoqni mo'tabar kitoblardan jam qilib, ul illatlarni bayon etib, so'ngra chorasini bayon qildim. Shoyadkim, dardlaridan xolos bo'lg'aylar”[6],— deb yozgandi.

1658–1661 yillarda Abulg'oz “Shajarayi tarokima” (“Turkmanlar shajarasi”) nomli bir kitob, 1663–1664 yillarda “Shajarai turk va mo'g'ul” nomli yana bir tarixiy asarni yozgan. “Shajarayi turk” asarida Abulg'oz o'zining ulug' hukmdorlar avlodidan ekanligi va Xorazmning xon unvonidagi haqiqiy hukmdori ekanligini isbotlashga harakat qilib, o'z ismiga Chingiziy, al–Xorazmiy kabi taxalluslarni qo'shib yozishga intilgan.

1663 yilda taxtga chiqqan Anusha Muhammadxon (1663–1687) Xiva xonligi mavqeyi va qudratini oshirish maqsadida otasi ishlarini davom ettirdi[7].

Qiyot–qo'ng'irotlar to'pasiga o'zbeklarning jaloyir va turkmanlarning alieli urug'lari ham birlashtirilgan bo'lib, ularga Shovotdan Qo'ng'irotning Quyg'un degan joyigacha bo'lgan yerlar ajratildi. Uchinchi to'paga — nukus- mang'it qabilalari birlashtirilib, ularga kenagas va xo'jaeli urug'i kiritildi. Qang'li–qipchoqlar alohida to'paga ajratilgan bo'lib, unga ko'chmanchilarning yana bir nechta urug'lari birlashtirildi.

Gurlandan to Lavzan kanaligacha bo'lgan hududlar hamda Amudaryoning quyi qismida nukus va mang'it qabilalari joylashtirildi. Amudaryoning so'l sohilidagi Qipchoq atrofi, Xo'jayli va Ko'ko'zak oralig'ida qang'li hamda qipchoq qabilalari joylashtirildi. Ular tarkibida Dashti Qipchoqdan kelgan o'zbeklarning 14 urug'i ham o'rnashtirildi[8].

Xulosa. Arab Muhammadxon va uning vorislari davrida Xiva xonligida nisbatan siyosiy barqarorlik o'rnatilib, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun sharoit yaratilgan, qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Abulg'ozixon va uning vorisi Anushaxon davrida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mamlakatdan chiqib ketgan o'zbek urug'larini qaytarish va ularning mavqeini ko'tarish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu islohot nafaqat qabilalar o'rtasidagi kurashlarga barham berish, balki ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi qabilalarning o'troqlashish jarayonini kuchaytirish maqsadini ham ko'zda tutgan edi[8].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Abulg'ozni hokimiyat tepasiga kelgan birinchi kundan boshlab asosiy e'tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Xiva tarixchisi Munisning ko'rsatishicha, Abulg'ozixon ma'muriy islohot o'tkazib, xonlikning markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil etdi. Ya'ni, saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlarini tashkil etib, ular tubandagicha taqsim etildi: 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 1 ta noyib, 4 ta otaliq, 4 ta inoq, 4 ta mirob, 4 ta biy, 1 ta parvonachi, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig'atoy inoqi, 1 ta vazir va yana 1 ta qushbegi lavozimlaridir. Shu bilan Abulg'ozni o'zbeklarni va yerli aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb etib, ular orasida ma'lum barqarorlikni vujudga keltirdi. Davlat hokimiyatini mustahkamlab olishi Abulg'oziga ichki va tashqi siyosatni keng ko'lamda amalga oshirish imkoniyatini berdi. Abulg'ozixonning ichki siyosat borasida o'tkazgan eng muhim tadbirlaridan yana biri — o'zbek urug'–qabilalarini butun voha bo'ylab qayta joylashtirish siyosati bo'ldi.

XVI–asr boshlarida tashkil topgan Xiva xonligidagi beqaror siyosiy vaziyat, mansab va taxt talashuvlar, soliqlar va ortiqcha majburiyatlarning ko'pligi inqiroz holatlarini yanada chuqurlashtirishga sabab bo'lgandi. Natijada XVIII asr ikkinchi yarmiga kelib xonlikning siyosiy birligi susaydi, uning tashqi va ichki munosabatlari mushkul bir holatga tushdi. Kuchli siyosiy arboblarning yo'qligi, iqtisodiy jihatdan mustahkam tayanchlarning buzilishi mamlakatning qaramligi va harbiy jihatdan o'jizlanishiga sabab bo'ldi. Vujudga kelgan vaziyat qattiqqo'l va uzoqni ko'ra biladigan qobiliyatli davlat arboblarning siyosiy kurash minbariga chiqarishni talab qilardi. XVIII asr ikkinchi yarmida kuchaygan siyosiy inqiroz, xonlik taxtida qo'g'irchoq hukmdorlarning tez-tez almashib turishi («xon bo'lish o'yini»), shuningdek, Xorazmda tarqalgan qahatchilik va yuqumli kasalliklar, turkman yovmutlarining bosqini xalqni og'ir ahvolga solgan. Hatto “dehqonlarda sotish uchun g'alla va boshqa xo'jalik mahsulotlari, shahar xalqida pul, hunarmandlarda qayta ishlash uchun xom–ashyo, savdogarlarda sotish uchun mollar qolmagan, dahshatli ochlik oqibatida ommaviy ravishda yosh bolalarni sotish hollari avj olgan”[9].

Foydalanilgan adabiyotlar.

[1] Rossiya arxivlaridagi manbalarda “Ustyurt orqali ruslarning harakatlari haqidagi ishonchli ma'lumotlar XV asrga oiddir. 1605 yilda 1000 ga yaqin o'rol kazaklari Ustyurt orqali o'tib Ko'hna Urganchgacha etib kelganlar va shu erda xivaliklar tomonidan batamom qirib tashlangan”, — degan ma'lumot bor. (Iz doklada polkovnika generalnogo shtaba Belinskogo voennomu ministru ob ekonomicheskome i torgovom razviti v Sredney Azii / SGVIA, f. 400, op. 2, d. 38, l. 10. // WWW: Kungrad.com.

- [2]. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – B. 50
- [3]. Abulg'ozil Bahodirxon. Shajarayi turk. – B. 158–159.
- [4]. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – B. 219.
- [5]. Qo'shjonov O., Durdiyeva G. Xiva xonligi turkmanlari. — Xiva, 2008. – B. 11.
- [6]. Mahmudov M. Xorazm: tarix, odamlar, voqealar. — Urganch, 2004. – B. 148.
- [7]. Фирдавс ал-Икбаль. Сочинение Муниса и Агахи // МИТТ. — Т. II. — С. 331-332.
- [8]. Фирдавс ал-Икбаль. Сочинение Муниса и Агахи // МИТТ. — Т. II. — С. 328. (прим.1);
Муравьев Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. – С. 36.
- [8] Файзиев А.Ф. Хорезм в начале XVI – первой половине XIX в. – С. 258-259
- [9]. Otajonov M. Xiva xonligiga doir materiallar ... – B. 26.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].